

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

J.Qodirov	
Shaxsga yo'naltirilgan jismoniy tarbiya ta'limi jarayonida pedagogik monitoringni amalga oshirish omillari.....	99
M.Hamidjonov, N.Shodilbekov	
Futbolchilarning ruhiy va jismoniy jihatdan tayyorlashning asosiy usul va vositalari.....	103
B.Qurbonova	
Talabalarni hamkorlik pedagogikasi asosida ijtimoiy hayotga tayyorlashda moslashuvchanlik imkoniyatlarini oshirishni modellashtirish.....	107
D.Xakimova	
Innovatsion salohiyat pedagog faoliyatining ajralmas qismi.....	111
B.Umarov	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	114
Sh.Ro'zaliyev	
"Geymifikatsiya" va "Didaktik jarayonlar"ning metodik tavsifi.....	118
F.Yuldashev	
Ko'ngilli yong'in-qutqaruvchilarni o'qitishda interaktiv trenajyorlardan foydalanishning ahamiyati.....	123
A.Rajabov	
Mirbobo Naqshbandiy qalb zikri va uning turlari to'g'risida.....	129
Z.Xamraqulov	
Jinoyat huquqining o'qitilishida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish asoslari.....	133
S.O.Omonova	
O'zbekistonda sportni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati va bunda xotin-qizlar ishtiroki.....	138
A.T.Tuychiyev	
Raqamli texnologiyalar davrida tanqidiy fikrlashning ahamiyati.....	142
N.E.G'olibjon	
Oliy ta'lim talabalarining jismoniy sifatlarini aylanma mashqlar asosida rivojlantirish usullari.....	149
J.B.Hamraqulov	
Talabalarda ekologik axloqiy kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlari.....	154

IQTISODIYOT

M.Adxamov	
Kichik mamlakatlarning milliy innovatsiya tizimlari raqobatchilik masalasi.....	158
A.A.Oripov	
Risklarni boshqarish tizimi asosida xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyati samaradorligini baholash.....	161

FALSAFA

M.Qaxxarova, M.Raximshikova	
Yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish va tarbiyalash mummosi.....	169
A.Sufiyev	
Tadbirkorlik madaniyatini oshirishning aksiologik va pragmatik omillari.....	175
B.G'aniyev	
Markaziy Osiyo mutafakkirlarining fuqarolik jamiyati haqida ilk ijtimoiy-falsafiy qarashlari.....	181
S.Yuldashev	
Jamiyat transformatsiyalashuvining yangi ijtimoiy-madaniy usullari.....	186
Sh.Usanov, E.Avazov	
Millatlararo munosabatlar mustahkamlanishida Surxondaryo viloyat turkman milliy-madaniy markazining o'rni.....	190
M.Choriyeva	
"Shoxnoma"da diniy ta'limotlar.....	195
K.Saydazimov	
Baholash va normalar mantig'ida axloqiy qadriyatlar.....	199
A.Mo'ydinov	
Ma'rifatli jamiyatni qurish va ma'rifatli inson sensualistik qarashining mohiyati.....	204

MIRBOBO NAQSHBANDIY QALB ZIKRI VA UNING TURLARI TO'G'RISIDA

МИРБОБО НАКШБАНДИ ОБ УПОМИНАНИИ ДУШИ И ЕЕ ТИПОВ

MIRBOBO NAQSHBANDI ON THE MENTION OF THE SOUL AND ITS TYPES

Alisher Rajabov¹¹Alisher Rajabov

– Buxoro davlat univbertiteti, Pedagogika instituti o'qituvchisi.

Annotatsiya

Mazkur maqolada mutasavvif Mirbobo Naqshbandiyning "Mir'otus solikin" ("Haq yo'li toliblarining oynasi") asarida bayon qilingan qalb, uning zikri va zikrning turlari to'g'risida yozgan qarashlari, fikr va xulosalari berilib, ilmiy tahlil qilindi.

Аннотация

В этой статье приведены взгляды, мнения и выводы эксперта Мирбобобо Накшбандия о душе, ее упоминании и типах упоминания, которые описаны в Мир'отусе Соликине ("Окно истинного пути талибана"), и проведен научный анализ.

Abstract

In this article, the views, opinions and conclusions written by the mystic Mirbobo Naqshbandi about the soul, its dhikr and types of dhikr described in the work "Mir'otus solikin" ("The Mirror of the Seekers of the Right Path") were given and scientifically analyzed.

Kalit so'zlar: qalb, zikr, shaytoniy, nafsoniy, malakiy, rahmoniy, naqshbandiya, tasavvuf, nafs, nafas, xatar.

Ключевые слова: душа, воспоминание, сатанинское, чувственное, малаки, Рахмания, Накшбандия, суфизм, похоть, дыхание, риск.

Key words: soul, zikr, satanic, fleshly, malaki, rahmani, naqshbandiya, mysticism, lust, breath, danger.

KIRISH

Naqshbandiya tariqatining orifi, shoir va mutasavvif Mirbobo Naqshbandiy (tax. 1650-1715) to'g'risida ko'pchilik ko'pchilik xabardor emas. Negaki, Hind zaminda yashab ijod qilgan bu mutasavvif naqshbandiya tariqatining munosib vorisi, mutasavvifi, nazariyotchi va amaliyotchisi sifatida ikkita tasavvufga va naqshbandiya tariqati nazariy asoslariga bag'ishlangan "Tuhfatul muhaqqiqin" ("Haqni izlovchilarga tuhfa") va "Mir'otus solikin" ("Haq yo'li toliblarining oynasi") asarlarini yozgan bo'lsa-da, bu asarlar o'z tadqiqotchilarini kutib yotibdi.

Mazkur maqolada mutasavvifning "Mir'otus solikin" ("Haq yo'li toliblarining oynasi") asarida bayon qilingan qalb, uning zikri va zikrning turlari to'g'risida yozgan qarashlari, fikr va xulosalari berilib, ilmiy tahlil qilindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Qalbgga zikrni to'la kiritish va uni qalb o'zi doimiy aytadigan qilish uchun belgilangan nisob bor. Mutasavvif bu haqda shunday yozadi: "Ismi zot bu "Alloh, Alloh" bo'lib, solik uni toq sonda aytib, nisob to'rt yuztaga yetganida Alloh naqshi qalbgga tillo suvi bilan yozilgandek chiziladi va qalbgga zikr kirib joylashadi hamda solikda Allohning huzuriga robita paydo bo'ladi"[1].

Solik shu martabaga yetgandan keyin unda mavjud barcha ma'naviy illatlar, shubha va gumonlar va boshqa har xil ikkilanishlar yo'qoladi. Ruhi orom oladi, shifo topadi, imon halovatiga erishadi. Solik dunyo ishlaridan forig' bo'lib, o'zini xotirjamlik va sakinatda ko'radi. Qalbining turli tashvishlardan xoli bo'lganini, ruhi taskin topib, ruhan sog'ayganini his qiladi. Bu ruhiy sakinatni Mirbobo Naqshbandiy quyidagi baytda ifodalaydi:

Ey, nomi Tuam shifoi amroz,
Vey, zikri Tuam husuli ag'roz[2].

MAZMUNI:

Nomi barcha kasalliklarga shifo bo'lgan Zot – bu Sensan
Va zikri barcha maqsadlarni hosil qiluvchi Zot – Bu Sensan.

Mirbobo Naqshbandiy zikr qalbg'a o'rnashganidan keyin paydo bo'ladigan ruhiy holatlarni tasvirlab, uning ruhiyatga ta'sirini bir qit'a orqali ifodalaydi:

Yodi Tu kunam dilam ba parvoz oyad,
Nomi Tu baram umr shuda boz oyad.
Ro'zeki, hadisi ishqat og'oz kunad,
Bo man daru devor ba ovoz oyad.

MAZMUNI:

Seni eslar bo'lsam, dilim parvoz qila boshlaydi,
Nomingni aytsam, umringa umr qo'shiladi.
Qaysi kunki, ishqingni so'zlar bo'lsam,
Eshigu devorlar ham tilga kirib men bilan gaplashadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mutasavvif qalbning zikrga oshno bo'lishini, va undan ayrilishni istamasligini, undan bir lahza ayrilish inson uchun katta musibat bo'lishini. Bu hol bilan bog'liq ish bo'lganidan uni boshdan kechirganlar tushuna olishini aytadi. Shu o'rinda u "Irshodus solikin" ("Haq yo'li soliklarini to'g'ri yo'lga boshlash") asaridan bir voqeani naql qilib keltiradi:

"Irshodus solikin" da keltirilishicha, Shayx Fathulloh (Alloh sirini muqaddas qilsin) ning bir muridi bor edi. Bir kuni uning qalbi zikr qilishni boshlab yubordi. Bahor payti edi va yomg'ir yog'ib turgandi. Murid hovlining supasida bo'lganidan oyog'i loyga toyib sirpanib ketdi. "Bismilloh" deb, yugurib o'zini panaga oldi. O'sha onda uning qalbi zikrdan to'xtadi va o'rinini g'aflat egalladi. Murid buning musibatida to'rt oy oq joma kiyib, belini bog'lab, soqolini va tirnoqlarini o'stirib, motamzadalik bilan o'zini ojizona tutib va motamsaro yurib, ta'ziya tutdi"[3].

Mirbobo Naqshbandiy nazdida har bir nafas insonning qaytib kelmas umrining bir bo'lagidir. SHuning uchun uni bekor va g'aflat bilan o'tkazib bo'lmaydi. Qalb bilan zikr qilmasdan kirib chiqqan har bir nafas umrdan ketgan bir gavhar misolidir. Buni u quyidagi misrada ifodalaydi:

هر يك نفس كه ميروود از عمر گوهر است
كأنرا خراج ملك چو عالم بود بها

MAZMUNI:

Umrndan o'tyotgan har bir nafas qimmatbaho gavhardir,
Uning xiroji butun olam bilan tengdir.

Mirbobo Naqshbandiy shuning uchun umrning har bir nafasini qalb huzuri bilan zikrda o'tkazmog'lik, hamisha qalbn'i g'aflatdan xoli qilishga harakat qilmog'lik lozim deb biladi. U buni Qur'on oyatining ma'nosidan izlaydi va uni asos qilib keltiradi: "Bizni zikr qilishdan qalbini g'ofil qilib qo'ygan, havoyi nafsiga ergashgan va qilar ishi isrofgarchilik bo'lgan kimsalarga itoat etmang" (Kahf: 28-oyat.).

Mirbobo Naqshbandiy shu tarzda iqtibos keltirib, zikrning amaliy jihatlarini to'liq tushuntiradi. Tushuntirish davomida zikrning qalbn'i poklashdagi ahamiyati to'g'risida yana bir necha masnaviy, bayt, qit'a va she'riy parchalar keltiradi.

Mirbobo Naqshbandiy qalbn'i tozalash jarayonida inson ruhiyatida kechadigan o'y-xayollarni to'rt turga bo'lib ko'rsatadi:

1. Shaytoniy.
2. Nafsoniy.
3. Malakiy.
4. Rahmoniy[4].

Shaytoniy va nafsoniy xatarlarni u "g'ayri Haq" xatarlar deb aytadi. Va solik bu nafslarni o'zidan nafy qilishi, ya'ni ketkazishi kerak hisoblaydi. U bu to'g'rida bir ruboiy mavzusi ostida masnaviyini keltiradi:

Xatarhoyi g'ayri Haq daroz don,
In riyozat solikonro farz don.
Posboni dil shav, andar kulli hol,
To nayoyad hech duzd onjo mahol[5].

MAZMUNI:

Haqiqiy bo'lmagan xatarlar ko'pdir,
Bu kabi xatarlarni boshdan kechirib, riyozat tortmoq solikka farzdir.
Har bir hol paytida qalbingning posboni bo'l,
Tokim unga har turli o'g'rilar kirolmasin.

Mazkur ruboiydan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Solik uchun fikriy, holiy, hodisaviy va boshqa turdagi ko'plab xatarlar mavjud.
2. Bu xatarlar Haqdan bo'lmay balki shaytondan va nafsdan bo'ladi.
3. Bu og'ir xatarlar paytida xursandchilik yoki g'am-anduhdan paydo bo'lgan har qanday holda qalbni qattiq ehtiyot qilish va unga dunyoviy istak va xohishlar aralashishidan asrash lozim.
4. Qalbni o'g'rilardan, ya'ni solikni Haq yo'lidan adashtirishi yoki chalg'itishi mumkin bo'lgan har qanday narsalardan himoya qilish kerak.

Mirbobo Naqshbandiy solikning qalbini zikrga mashg'ul qilish usullarini yozar ekan buning bir necha turi borligi aytadi: "Ba'zi zikrlar borki, ular ikki zarbda talqin qilinadi, bazisi esa uch zarbda talqin qilinadi, ba'zisi jahriya tarzida to'rt zarb bilan amalga oshiriladi. Bularni amalga oshirish tartiblari ham har xildir. Ularning ba'zisi nafas orqali bajarilsa, ba'zisi til orqali bajariladi, ba'zini ma'kus namozi[6] bilan amalga oshiriladi"[7].

Bu kabi turlichalikni Mirbobo Naqshbandiy solik uchun zararsiz deb biladi. U buni quyidagi misra bilan tushuntirib beradi:

MISRA:

Maqsad yakest Ka'ba ravonon agar sadand,[8]

MAZMUNI:

Ka'baga boruvchilar yuzta bo'lsalar ham maqsadlari bittadir.

Mirbobo Naqshbandiy qalbning zikrga mashg'ul qilishda piri murshidning o'rniga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, bu borada qanday zikr turini tanlash murshidning, ya'ni pining ixtiyorida bo'ladi. Mutasavvif bu to'g'rida "Ba'zi pirlar muroqabani talqin qiladilar. Buning usullari ham har turli pirlardan turlicha kelgan. Ba'zi pirlar esa posi anfosni, ya'ni nafasni nazorat qilish orqali zikrni buyuradilar. Bunda ular solikka har bir nafasni chiqarganda "La ilaha" bilan chiqarishni, nafasni olganda esa "illalloh" bilan olishni o'rgatadilar. Bu qoidani "hush dardam" yoki "xatari nafas" deb aytadilar"[9].

Mirbobo Naqshbandiy bu zikrning ahamiyati naqadar katta bo'lganligidan pirlarning Haq yo'lga kirgan solik va toliblarga doimiy uni eslatib turishi uchun ajoyib usullardan foydalanganliklarini qayd etgan: "Ba'zi bir pirlar toliblarga zikrni to'xtamay davom ettirib yurishlari uchun ularning idishlari yoki yenglariga, doim nazari tushib turadigan joylarga "Alloh" naqshini yozib qo'yadilar[10].

Mutasavvif davomli zikrning natijasida solikning ko'zi oldidagi "Alloh" naqshi u murshididan irshod olganida uning qalbiga ko'chishini va bungacha solikzikrda bardavom bo'lishi kerakligini yozadi: "Solik ma'lum bir vaqt bu tariqa mudovamat va mulozamat ko'rsatsa, ayni o'sha "Alloh" naqshi murshiddan irshod olganda uning qalbiga muoyana qiladi va u qaysi tomonga boqmasin, unda "Alloh" naqshini ko'radi"[11].

XULOSA

Yuqoridagi xulosadan ma'lum bo'ladiki, naqshbandiya tariqatida qalbni tozalash eng muhim vazifalardan hisoblanib, uning quyidagi amaliy ko'rinishlari mavjud:

1. Qalbni zikrga o'rgatish usul va vositalari bir necha xil bo'lib, uning yagona qolipi mavjud emas. U vaziyat va voqelikni, shuningdek, tariqatga kiruvchi solikning ruhiy va ma'naviy holdan kelib chiqib, belgilanadi.
2. Qalbni zikrga o'rgatish amaliyoti to'g'ridan-to'g'ri pining nazorati va talqini ostida kechadi.
3. Qalbni zikrga o'rgatish usullaridan eng keng qo'llaniladigani bu "hush dar dam" usulidir.
4. Qalbni shaytoniy va nafsoniy istaklardan xoli qilish va zikrning davomiyligini t'minlash maqsadida "Alloh" lafzini ko'z doim tushib turadigan joy va narsalarga yozib qo'yiladi.
5. Zikrning davomiyligidan kutiladigan natija bu "Alloh" lafzini qalbgaga naqsh qilib, qalbni Haq vasliga yetishtirish.

Mutasavvif solik qalbi sayqallanib, unda Haq nuri tajalliy qila boshlashi bilan solikning ko'ziga Haqdan boshqasi ko'rinmay qolishini, qaysi tomonga va qayerga boqsa Uni ko'rishini ruboiy nomi ostida kelgan to'rtligida ifoda qiladi:

RUBOIY

Man nomi Turo bar kafi xud bingoram,
Bas, diyda bar on nom ham chun yorand.
Az baski, du diyda dar xayolat doram,

Dar har chi nazar kunam Tue pindoram[12].

MAZMUNI

Men Sening nomingni o'z kaftimda ko'raman,
Bas, ko'zlarim ham unga juda o'rganib qolgan.
SHu qadarki, ikki ko'zimga xayoliy surating ko'rinadi,
Hamma narsaga boqsam, unda Seni ko'raman.

Mirbobo Naqshbandiyning mazkur asari tom ma'noda tariqat yo'lining soliklari uchun dasturulamal va uslubiy ko'rsatma hamda nazariy asos sifatida yozilgan o'ziga xos asar bo'lib, u o'z tadqiqotchilarini kutib turibdi. Shuningdek, undan inson kamolotiga xizmat qiladigan, uning ma'naviy dunyosini boyitadigan hamda axloqiy hayotda uchraydigan turli muammolar va ruhiy taranglikni ketkazishga ko'maklashadigan muhim o'g'itlarni, pandlarni va qalbni tarbiyalashda, unga ezgulikni singdirishga qo'l keladigan va asos bo'ladigan xulosalarni olishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. مرآت السالكين. ميربابا ابن ميردرويش نقشبندي. كتيبخانه مرکزی و مرکز استاد دانشگاه تهران: 211-ص
2. مرآت السالكين. ميربابا ابن ميردرويش نقشبندي. كتيبخانه مرکزی و مرکز استاد دانشگاه تهران: 212-ص
3. مرآت السالكين. مير بابا ابن ميردرويش نقشبندي. كتيبخانه مرکزی و مرکز استاد دانشگاه تهران: 213-ص
4. مرآت السالكين. مير بابا ابن ميردرويش نقشبندي. كتيبخانه مرکزی و مرکز استاد دانشگاه تهران: 216-ص
5. مرآت السالكين. مير بابا ابن ميردرويش نقشبندي. كتيبخانه مرکزی و مرکز استاد دانشگاه تهران: 216-ص
6. Tariqat soliklariga buyuriladigan ortiqcha namoz turi.
7. مرآت السالكين. مير بابا ابن ميردرويش نقشبندي. كتيبخانه مرکزی و مرکز استاد دانشگاه تهران: 216-217-ص
8. مرآت السالكين. مير بابا ابن ميردرويش نقشبندي. كتيبخانه مرکزی و مرکز استاد دانشگاه تهران: 217-ص
9. مرآت السالكين. مير بابا ابن ميردرويش نقشبندي. كتيبخانه مرکزی و مرکز استاد دانشگاه تهران: 217-ص
10. مرآت السالكين. مير بابا ابن ميردرويش نقشبندي. كتيبخانه مرکزی و مرکز استاد دانشگاه تهران: 217-ص
11. مرآت السالكين. مير بابا ابن ميردرويش نقشبندي. كتيبخانه مرکزی و مرکز استاد دانشگاه تهران: 218-ص
12. https://baharestan.khoy.iau.ir/article_689823.html